‘‘MAKORIM UL-AXLOQ’’ ASARI – ALISHER NAVOIY SHAXSIYATI VA IJTIMOIY FAOLIYATINING ENSIKLOPEDIK MANBASI SIFATIDA

Xamidov Mirolimbek Mansur o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

G‘ofirjonova Marhabo Hasanboy qizi
Farg‘ona davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.20062034

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning hayot yo‘li, badiiy tafakkuri, yashash tarzi va go‘zal axloqi uning zamondoshi va shogirdi bo‘lgan tarixchi Xondamir tomonidan qanday tasvirlangani haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. Navoiy hayotini yoritish uchun Xondamir qalamiga mansub “Makorim ul-axloq” asaridan foydalanildi.
Kalit so‘zlar: tazkira, tarixiy asar, shaxsiyat, axloq, saxovat, xayriya binolari.

Abstract. This article provides detailed information on how Alisher Navoi’s life path, artistic thinking, lifestyle, and sublime morals were depicted by the historian Khondamir, who was his contemporary and disciple. To shed light on Navoi’s life, the work ‘‘Makorim ul-akhloq’’ (The Noble Qualities) by Khondamir was utilized.
Keywords: tazkira (biographical anthology), historical work, personality, ethics, generosity, charitable buildings.

Аннотация. В данной статье представлены подробные сведения о том, как жизненный путь, художественное мышление, образ жизни и прекрасные нравы Алишера Навои были описаны его современником и учеником, историком Хондамиром. Для освещения жизни Навои было использовано произведение Хондамира ‘‘Макорим ул-ахлок’’ (‘‘Благородные нравы’’).
Ключевые слова: тазкира, историческое произведение, личность, нравственность, щедрость, благотворительные постройки.

KIRISH

Alisher Navoiyning hayoti va ko‘p qirrali faoliyati to‘g‘risida turli manbalarda ko‘plab ma’lumotlar yozib qoldirilgan. Jumladan, Abdurazzoq Samarqandiyning ‘‘Matla’ us-sa’dayn va majma’ ul-bahrayn’’, Husayn Boyqaroning ‘‘Risola’’, ulug‘ shoir va mutafakkir Abdurahmon Jomiy ko‘plab asarlari, Davlatshoh Samarqandiyning ‘‘Tazkirat ush-shuaro’’, Muhammad ibn Xovandshoh ibn Mahmud Mirxondning ‘‘Ravzat us-safo’’, G‘iyosiddin ibn Humomiddin Xondamirning ‘‘Xulosat ul-axbor’’, ‘‘Habib us-siyar’’ va ‘‘Makorim ul-axloq’’ Som Mirzo Safaviyning ‘‘Tuhfayi Somiy’’, Zayniddin Mahmud Vosifiyning ‘‘Badoyi’ ul-vaqoyi’’, Abdulvosi’ Nizomiy Boxarziyning ‘‘Maqomoti Jomiy’’, Mirzo Abdulloh Afandi Isfahoniyning ‘‘Riyoz ul-ulamo va hiyoz ul-fuzalo’’, Zahiriddin Muhammad Boburning ‘‘Boburnoma’’ asarlarida Navoiy siymosi va uning ijtimoiy-madaniy hayotdagi o‘rni yuksak mahorat bilan tasvirlangan. Biroq bular orasida Xondamirning ‘‘Makorim ul-axloq’’ asari Alisher Navoiyning hayoti hamda adabiy, ilmiy, siyosiy, ijtimoiy faoliyati, shuningdek uning buyuk shaxsiyati, oliy insoniy fazilatlari, mamlakat, davlat, xalq, madaniyat, adabiyot va ilmga qilgan ulkan va beqiyos xizmatlari to‘g‘risidagi eng ko‘p ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan kitob bo‘lib, Navoiy hayoti va faoliyatining turli qirralarini o‘rganishda qimmatli manba hisoblanadi. Xondamir o‘zining debocha, muqaddima, o‘n maqsad (bob), xotima hamda Navoiyning qanday vafot etganligi

to‘g‘risidagi bobdan iborat bo‘lgan ushbu asarida asosiy diqqat-e’tiborni uning donishmandligi va yuksak zakovati, olimlik, shoirlik va yozuvchilik borasidagi iste’dodlari hamda rahmdillik, saxiylik va xokisorlik kabi go‘zal xulqlari va olijanob xislatlariga qaratish bilan birgalikda, ushbu buyuk shaxs hayotida uning bolalik chog‘laridan tortib umrining oxirigacha bo‘lgan davrda yuz bergan muhim voqealarni ham imkoni boricha qamrab olishga harakat qilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

‘‘Makorim ul-axloq’’ asarining bizning davrimizgacha yetib kelgan qo‘lyozma nusxalari orasida eng qadimgisi London shahridagi Britaniya muzeyida saqlanadi.[1] Uni xattot Muhammad ibn Hamza al-Husayniy 1558-yilning yozida nasta’liq xatida ko‘chirgan. 1879-yili chop etilgan ‘‘Britaniya muzeyi kutubxonasida saqlanayotgan forsiy qo‘lyozmalar katalogi’’ muallifi, mashhur ingliz sharqshunos olimi Charlz Ryo ushbu katalogning 1-jildida ‘‘Makorim ul-axloq’’ asarini quyidagicha tavsiflagan: ‘‘Makorim ul-axloq’’ asarining yagona qo‘lyozma nusxasi Sulton Muhammad Faxriy Hiraviyning ‘‘Latoyifnoma’’ asari qo‘lyozmasi bilan bir jildda joylashgan bo‘lib, Britaniya muzeyida Add.7669 raqami ostida saqlanmoqda’’.Tadqiqot davomida 1981-yilda Abdug‘affor Bayoniy tomonidan nashrga chiqarilgan “Makorim ul-axloq” asaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xondamir tomonidan 1501-yilda nihoyasiga yetkazilgan “Makorim ul-axloq” (“Oliyjanob xulqlar”) asari buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning hayoti, serqirra faoliyati va yuksak insoniy tabiatini yoritishga bag‘ishlangan eng ishonchli manbalardan biridir. Mazkur asarning yozilish tarixi va sabablari bevosita muallifning o‘z ustozi va homiysiga bo‘lgan cheksiz hurmati hamda ma’naviy qarzdorlik hissi bilan bog‘liq. Xondamir asar muqaddimasida ta’kidlaganidek, u yoshlik yillaridan boshlab Navoiyning tarbiyasi va g‘amxorligida kamol topgan. Shu bois mutafakkirning noyob fazilatlari, go‘zal odobi, sehrli iste’dodi va jamiyat ravnaqi yo‘lidagi xayrli ishlarini avlodlar xotirasida muhrlashni o‘zining muqaddas burchi deb bilgan. Asarni yozishdan maqsadi nima ekanini Xondamir qit’a janrida yozilgan quyidagi misralar orqali badiiy yo‘sinda ochib beradi: “Qit’a:

Sening madhingda so‘z aytishdan maqsad shuki,
San’at ahli orasida biz ham muvaffaqiyatga erishaylik.
Yo‘qsa, [shusiz ham] quyoshning fazilatlari barchaga ma’lum,
Go‘zal chehraga pardozning nima hojati bor?”[2]

Xondamir ustoziga bo‘lgan cheksiz hurmatini izhor qilar ekan, Navoiyning tug‘ilishi bilan bog‘liq ilohiy voqealarni birma-bir sanab, o‘z fikrini dalillaydi: “Tarixnavislar va rivoyatchilarning nurli ko‘ngillariga noma’lum qolmasinki, ul hazrat tavalludi quyoshining chiqish vaqti bo‘lgan ramazon oyining o‘n yettinchi kuni cheksiz sharaf va manzilatga egadir. Chunki ko‘pchilik tafsirchilarning fikricha, Mannon mulkidan so‘nggi payg‘ambar alayhi salavotga vahiy va Qur’onning tushirilishi ham ana shu kuni yuz bergan bo‘lib, payg‘ambar alayhissalom hayoti haqida qissa yozguvchi barcha kishilarining aytishlariga qaraganda, «Badr [jangi]da [harbiy] kuchingiz oz bo‘lsa-da, Alloh sizlarni g‘olib qildi-ku!»[3] oyati uning yuksak sha’nidan hikoyat qiladigan Badr jangi ham ana shu kuni yuz bergan. Bir guruh tarixchilarning taxminlaricha, Shohimardonning[4] (ul zotga salavotlarning eng yaxshisi bo‘lsin) muborak boshiga ham xuddi ana shu kuni qilich solinib, ul zotning shahodatga yetishishiga sabab bo‘lgan. Shuningdek, ayrim ulamolarning fikrlaricha, qadr kechasi ham ramazon oyining o‘n yettinchi kechasiga to‘g‘ri keladi.

---

[1] Rieu Ch. Catalogue of the Persian manuscripts in the British Museum. V. I. – London: 1879, p. 367.
[2]Makorim ul-axloq: tarixiy asar /Xondamir. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 9b.
[3]Qur’oni karim, «Oli Imron» surasi, 123-oyat.
[4] Shohimardon [mardlar shohi] – O‘rta Osiyo oddiy xalq ommasi orasida Hazrati Aliga (k.v.) berilgan nom

Bayt:

O‘sha qadr kechasini xilvat ahli bugun kechasiga to‘g‘ri keladi,deb aytadilar,

Yo rab, bu davlat qay bir yulduzning ta’siri mahsulidir?[5]

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Xondamir ushbu asarni Navoiy hayotlik chog‘idayoq yoza boshlagan. Biroq asar ustidagi ishlar davom etayotgan bir vaqtda Navoiyning vafot etishi muallifni qattiq qayg‘uga solgan bo‘lsa-da, u o‘z oldiga qo‘ygan maqsadini yanada kengaytirishga qaror qilgan. Natijada asarning so‘nggi boblariga shoirning vafoti, dafn marosimi tafsilotlari hamda zamondosh ijodkorlar tomonidan bitilgan marsiya va ta’rixlar ham kiritilib, asarning biografik qiymati yanada oshirilgan.

Muallif har bir bobni mavzuga doir Qur’on oyatlari, muqaddas hadislar va ibratli rivoyatlar bilan boshlab, ularni munosib she’riy parchalar bilan bezatgan. Mashhur matnshunos Muhammad Akbar Ashiq e’tirof etganidek, ushbu asarni voqealar xronologiyasidan iborat oddiy biografiya emas, balki Navoiy shaxsi va davri manzarasini mahorat bilan chizib bergan adabiy-tarixiylikning yuksak namunasi sifatida baholash lozim.[6]Asarning har bir bobi Navoiy shaxsidagi muayyan bir ijobiy fazilatni ochishga xizmat qiladi. Masalan, asarda Navoiyning saxovati, qurilish va obodonchilik ishlariga (masjid, madrasa, shifoxona, ko'priklar) bosh-qosh bo‘lgani, ilm va san’at ahliga ko‘rsatgan beminnat homiyligi batafsil keltirilgan. Jumladan, Navoiyningmadrasa talabalari va ustozlari uchun ko‘rsatgan e’tibori asarda Xondamir tomonidan batafsil bayon qilinadi: “Shuningdek, tasavvuf va iymon ahlining qiblasi bo‘lmish ushbu zot unga zafar yo‘ldosh bo‘lgan Sohibqironning podshohlik zamonida mashhur olimlar va hurmatga sazovor fozillarning obro‘-e’tiborini oshirish va martabalarini yuksaltirishga qo‘lidan kelgancha g‘ayrat va himmat ko‘rsatdi hamda talabalarning [moddiy qiyinchilik ko‘rmasdan] xotirjam va bemalol ta’lim olishlari uchun ularga nafaqalar tayinlab, quyida sanab o‘tiladigan madrasalar va xonaqohlarni qurdi”[7] Shuningdek, asarda o‘sha davrning mashhur siymolari — Husayn Boyqaro, Voiz Koshifiy, Sayyid Hasan Ardasher kabi olim-u fozillarning Navoiy bilan munosabatlari, ularning ijodiy hamkorliklari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

‘‘Makorim ul-axloq’’ning navoiyshunoslikdagi o‘rni beqiyos. Asarda Alisher Navoiy tomonidan barpo etilgan 300 ga yaqin xayriya binolari, uning kundalik turmush tarzi, hatto nozik yumor hissi hamda hayotining so'nggi kunlari va vafoti haqidagi tarixiy faktlar juda aniqlik bilan berilgan. Ayniqsa, asarning xotima qismida shoir vafotiga bag'ishlangan ‘‘xayrun kamoluhu’’ kabi ta’rix-madhiyalar keltirilgan bo‘lib, bu ma’lumotlar bugungi kunda Navoiy tarjimayi holini o‘rganishda asosiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Jumladan, Xondamir tomonidan Navoiyning bu dunyoni tark etishi falsafiy usuldagi bayon bilan beriladi: ‘‘Har bir harakatning eng yuqori nuqtasi to‘xtalishdir, har bir yaratiluvchi narsaning oxiri esa yo‘qolishdir.

Qit’a:

Ey ko‘ngil, to‘ntarilgan falak zotida to‘xtalish yo‘q ekan,

Odam qanday qilib unda to‘xtab tura oladi.’’[8]

XULOSA

---

[5] Makorim ul-axloq: tarixiy asar /Xondamir. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 20 b.

[6] «Макорим ул-ахлоқ» асарига Муҳаммад Акбар Ашиқ муқаддимаси // Ғиёсиддин ибн Ҳумомиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. (Муҳаммад Акбар Ашиқ таҳрири остида). – Теҳрон: 1999.

[7] Makorim ul-axloq: tarixiy asar /Xondamir. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 35 b.

[8] Makorim ul-axloq: tarixiy asar /Xondamir. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 157 b

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, “Makorim ul-axloq” hajman kichik bo‘lishiga qaramasdan, boshqa hech bir manbada uchramaydigan noyob ma’lumotlarni o‘zida jamlagan. U nafaqat Alisher Navoiy hayoti va ijodini, balki Temuriylar davridagi ijtimoiy-madaniy muhitni, u davrning adabiy aloqalari va insoniy munosabatlarini o‘rganishda o‘zining fundamental ahamiyatini saqlab qolmoqda. Asar mutafakkirning komil inson sifatidagi qiyofasini ochib berishi bilan birga, o‘zbek davlatchiligi va madaniyati tarixining eng yorqin sahifalarini yorituvchi ishonchli xazinadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Makorim ul-axloq: tarixiy asar /Xondamir. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 232 b.
2. Istiqlol davri davri o‘zbek navoiyshunosligi.Komiljon Rahimov. ‘‘Makorim ul-axloq’’asari to‘g‘risida

.